

# Xitoyda pestisidlarning innovatsion formulasi ishlab chiqildi

// 30.01.2025

<https://uzkmyosanoat.uz/oz/press/news/xitoyda-pestisidlarning-innovatsion-formulasi-ishlab-chiqildi>



Xitoy Fanlar akademiyasining Xefey fizika fanlari instituti tadqiqotchilari ekinlar va ekologik xavfsizlikka e'tibor qaratgan holda zararkunandalarga qarshi samarali kurashni ta'minlovchi yangi "yashil" pestisid formulasini yaratdilar.

Pestisidning yangi formularsi o'zgartirilgan uglerod nuqtalari va kalsiy karbonat zarralarini abamektin uchun tashuvchi sifatida ishlataladi. Ushbu eritma o'simlik barglariga yopishqoqlikni kuchaytiradi, faol moddani quyosh nurlari degradatsiyasidan himoya qiladi va pestitsidning asta-sekin tarqalishini ta'minlaydi. Bu esa uni uzoq muddat samara berishini anglatadi.

O'simlik barglaridagi karbonat kalsiy oz miqdordagi kislotali muhitga tushganda parchalanadi va pestitsidning tarqalishini tezlashtiradi. Bundan tashqari, uglerod nuqtalari chiqaradigan fluoressensiya pestisidlarni qo'llash jarayonini kuzatib borishni osonlashtiradi.

"Boshqariladigan tarqalish" mexanizmi pestitsidni hatto ultrabinafsha nurlanish yoki yomg'ir kabi sharoitlarda ham faol bo'lib qolishiga imkon beradi.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**